



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLAR BERISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

dots. Sharipov Ixtiyor

Ma'mun universiteti

ORCID: 0000-0001-9736-1731

ihtiyorshb@gmail.com

prof. Qurbanov Rufat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-6841-9292

rufatjon86@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklarning investitsion kreditlari iqtisodiyotning asosiy tarmog'i hisoblangan sanoat korxonalarini uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning eng muhim manbai bo'lib, iqtisodiyotni progressiv va innovatsion rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ushbu maqolada banklarning kreditlash faoliyati davomida investitsiya loyiҳalarini samarali kreditlashni amaliyotga joriy etish taklif etilgan. shuningdek, banklar investitsion siyosatiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish asosida tegishli ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyiҳalarini kreditlash, bank kreditlari, kredit liniyalari, sanoat korxonalari.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРАКТИКИ ИНВЕСТИЦИОННОГО КРЕДИТОВАНИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

доц. Шарипов Ихтиёр

Университет Мамуна

проф. Курбонов Руфат

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Инвестиционные кредиты коммерческих банков являются важнейшим источником долгосрочных финансовых ресурсов для промышленных предприятий, которые считаются основной отраслью экономики, и являются необходимым условием прогрессивного и инновационного развития экономики. В данной статье предлагается внедрить в кредитную деятельность банков эффективное кредитование инвестиционных проектов. Также на основе изучения факторов, влияющих на инвестиционную политику банков, разработаны соответствующие научные выводы и предложения.

Ключевые слова: кредитование инвестиционных проектов, банковские кредиты, кредитные линии, промышленные предприятия.

PROSPECTS FOR DEVELOPING THE PRACTICE OF INVESTMENT CREDIT OF COMMERCIAL BANKS

assoc. prof. Sharipov Ikhtiyor

Mamun University

prof. Kurbonov Rufat

Tashkent State University of Economics

Abstract. *Investment loans of commercial banks are the most important source of long-term financial resources for industrial enterprises, which are considered the main branch of the economy, and are a necessary condition for the progressive and innovative development of the economy. This article proposes to introduce effective lending for investment projects into the lending activities of banks. Also, based on the study of factors influencing the investment policy of banks, relevant scientific conclusions and proposals have been developed.*

Keywords: *investment project lending, bank loans, credit lines, industrial enterprises.*

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, moliyaviy sektorning liberallashuvi va bank tizimining modernizatsiyasi jarayonlari investitsion kreditlarga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Investitsion kreditlar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda, yangi ish o'rinalarini yaratishda, texnologik yangilanishni ta'minlashda va sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Investitsion jarayonlar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishni, hududlarning tadbirdorlik sub'ektlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizga yirik hajmda investitsiyalar kiritishni talab qiladi va mazkur jarayonda tijorat banklarining o'rni alohida hisoblanadi. Chunki respublikamizda tijorat banklari asosiy investitsiya institatlari hisoblanadi hamda iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Mirziyoyev (2024) o'z ma'ruzasida: "Mamlakatimizdagi qulay investitsiya muhiti natijasida banklarning moliyaviy barqarorligi va faolligi oshib bormoqda. Xususan, sohadagi islohotlar tufayli so'nggi 5 yilda banklarning kapitali 2 barobarga, kredit portfeli 2,3 barobarga hamda yillik kredit ajratish hajmi 1,8 barobarga ko'paydi" - deb ta'kidlab o'tdilar.

Shuningdek, to'rtta bank ilk bor evrobond chiqarib, chetdan 1 milliard 300 million dollar resurs jalb etdi. O'tgan yili banklar 3,8 milliard dollarlik, shuningdek, ularning mijozlari hukumat kafolatisiz 6 milliard dollarlik xorijiy kreditlarni to'g'ridan-to'g'ri olib kelgan.

Zamon talabidan kelib chiqib, bu ishlarni yanada kengaytirish va loyihalarni sifatli amalga oshirish zarur. Shuningdek, Milliy bank hamda O'zsanoatqurilishbankning shu boradagi asosiy rivojlanish yo'naliishlari belgilab olingen. Joriy yilda Milliy bank tomonidan 6 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, zargarlik tarmog'ida 2,1 trillion so'mlik 526 ta, xizmatlar sohasida 41,8 trillion so'mlik kreditlar hisobidan 40 mingdan ortiq loyihalarni amalga oshirish va 2,5 million nafar aholi bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan. O'zsanoatqurilishbank 2024 yil xalqaro moliya bozorlaridan 3 milliard 100 million dollarlik mablag' jalb etishni maqsad qilgan. Bank mijozlari bilan umumiyligi qiymati 4 milliard 800 million dollarlik investitsiya loyihalariga kirishilgan. Mazkur bank tomonidan qurilish materiallari sohasida 2024-2025 yillarda 529 ta loyiha doirasida 2 milliard 800 million dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, bu orqali 25 mingdan ziyod ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, Milliy bank 967 ta, Sanoatqurilishbank 727 ta mahallada ishsiz aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Yana bir muhim jihat, banklar quyidagi tushib

ishlayotgani uchun ko'plab biznes tuzilmalar "soya"dan chiqmoqda. Jahon amaliyotidan ma'lumki, tijorat banklari investitsiya siyosati, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni hamda iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Yuqorida fikrlar, tijorat banklarida samarali investitsiya siyosatini shakllantirish, ularning resurs bazasini yanada ko'paytirish hisobiga investitsiya loyihalarini molialashning noan'anaviy manbalarini izlab topish, natijada esa tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyotni rivojlanishida investitsiyalar ahamiyati bilan bog'liq jarayonlar xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchilarining asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblangan. Iqtisodchi olim Samuelsonning (1999) fikriga ko'ra, investitsiyalash daromadlarni joriy iste'mol uchun ishlatmasdan, ularni keljakda ko'proq foyda olib, faoliyatni kengaytirish uchun sarflashdir.

Rossiyalik olim Margolin (2006) «Investitsiyalar» darsligida «Investitsiyalar – pul mablag'lari, maqsadli bank jamg'armalari, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo'lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko'zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritishdir», – deb ta'riflaydi.

O'zbekistonda investitsiya masalalariga bir qator olimlarimiz tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, iqtisodchi olimlardan professor G'ozibekov (2003) investitsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: «Investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi».

“Investitsiyalar” nemischa “investition”, lotincha “investio” so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni, xarajatlar yig'indisi, deb talqin etilgan. Iqtisodiy lug'atda (2004) «investitsiyalar - kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi», – deb ta'riflangan. Bir guruh iqtisodchi-olimlar investitsiyalarni barcha turdag'i mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida ishlab chiqarish tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisi sifatida ta'riflashadi.

Tijorat banklari investitsiyasi deganda, bir tomonidan tijorat banklarining barcha foyda olish maqsadida joylashtirilgan resurslari tushunilsa, ikkinchi tomonidan bu joylashtirilgan mablag'larning muddati bo'yicha ajratilgan bir qismi tushuniladi. Bu yo'nalishlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqlikda bo'lib, banklar o'z kapitali, aholi jamg'armalari va boshqa bo'sh pul mablag'larini jamlab o'z resurslarini yaratadilar va ularni foydali maqsadlarda joylashtiradilar. Mablag'larni jamlash operatsiyalarining hajmi va tarkibi banklarning kredit va investitsiya portfeli holatini belgilaydi hamda investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha muallif ushub tushunchani bir tomonlama ta'rif berishga yondashgan. Chunonchi, investitsiya nafaqat uzoq muddatli balkim qisqa muddatli ham bo'lishi mumkinligiga etarli e'tibor berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi va barcha foydalanilgan ma'lumotlar amaldagi qonun hujjatlari va Markaziy bankning statistik ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan tadqiq qilindi. Maqolada guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv, miqdoriy va tarkibiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun investitsion kreditlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, import o'rnnini bosuvchi mahsulotlar yaratish va eksport salohiyatini kengaytirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz iqtisodiyotiga investitsion kreditlarning ajratilishini kengaytirishning asosiy muammosi bu banklar kapitalining hali rivojlanib ulgurmaganligi, investitsion kreditlar resurs ba'zasining cheklanganligidir. Bu muammoni hal qilish maqsadida doimiy ravishda tijorat banklari ustav sarmoyasining hajmini ortirib borishga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, axoli qo'lida oborotdan tashqarida saqlanib, to'xtab turib qolgan pul mablag'larini bankka jalb qilish bilan va yuridik shaxslardan depozitlar jalb qilish yo'llari bilan qisman bo'lsada hal qilish mumkinligi sababli bu boradi kuchli investitsion siyosat olib borilayotganligi alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida investitsion kreditlar hajmining ortib borishi bilan uning samaradorlik ko'rsatkichi asosiy masalalardan biri bo'lib bormoqda.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, moliyaviy mablag'lar cheklangan xozirgi sharoitda investitsiya loyihalarini moliyaviy samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar dolzARB masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit quyilmalarining umumiy hajmida investitsion loyihalarini moliyalashtirish maqsadida berilgan investitsion kreditlar salmog'i yuqori o'rinni egallaydi (1 jadval).

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit quyilmalarining umumiy hajmida uzoq muddatli investitsion kreditlar salmog'i juda yuqori. Bu esa, banklarning investitsion loyihalarini moliyalashtirish jarayonlariga keng ko'lamda jalb qilinganligi bilan izohlanadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit quyilmalari va unda uzoq muddatli kreditlarning salmog'I (Ulashov va Hakimova, 2024).

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Kredit quyilmalari, trln. so'm	167,3	211,5	276,9	326,3	391,1	469,6
Uzoq muddatli kreditlarning kredit quyilmalarining umumiy hajmidagi salmog'i, %	72,7	75,8	79,5	80,0	86,7	87,4

Biroq, investitsion kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi tijorat banklari faoliyatiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi. Chunki, tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning etishmasligi tufayli, investitsion kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining oshib ketishi banklarda transformatsiya riskining chuqurlashishiga olib keldi

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada kengaytirishga, eksport qiluvchi korxonalarni hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirishga, iqtisodiyotning real sektor korxonalari tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida tijorat banklarining ushbu loyihalarda o'z kredit resurslari bilan faol ishtiroy etishlarini ta'minlashga va pirovard natijada ularni yirik investitsiya institutlariga aylantirishga sharoit yaratadi.

Respublikamiz tijorat banklarining etarli darajada likvidli ekanligi hamda ularning resurs bazasini tobora mustahkamlanib borayotganligi ularning investitsion faoliyatini rivojlantirish imkonini bermoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining investitsion faoliyoti darajalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki davlatimiz rahbarining respublikamizga investitsiya jalb etish borasida olib borayotgan say-harakatlari bevosita tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishiga bog'liq hisoblanadi.

Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovatsion va energiyani


tejaydigan texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdag'i tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish va shu orqali mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda bank tizimi tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat o'z samarasini bermoqda.

2-jadval

Kreditlar turlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i mlrd.so'm (cbu.uz, n.d.)

Ko'rsatkich nomi	01.02.2024 y.	01.02.2025 y.	O'zgarishi, (foizda)
Jami kredit qoldig'i	469 600	533 989	14%
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	149 894	179 852	20%
Ipoteka kreditlari	58 737	68 750	17%
Mikroqarzlar	25 155	43 986	75%
Iste'mol kreditlari	45 039	40 284	-11%
Ta'lim kreditlari	4 763	5 882	23%
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	15 985	19 457	22%
Boshqa kreditlar	216	1 492	590%
Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	319 706	354 137	11%
Kredit tashkilotlari bo'limgan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	305 781	328 803	8%
Lizing va faktoring	2 068	2 640	28%
Banklararo kreditlar	925	694	-25%
Mikrokreditlar	5 429	17 194	217%
Sinditsiyalashtirilgan kreditlar	5 502	4 806	-13%

Xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, zamonaviy texnologiya asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadlariga tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar ajratildi. Xususan 2024 yilda banklar tomonidan ajratilgan investitsion kreditlarning asosiy qismi qishloq xo'jaligi, engil sanoat hamda to'qimachilik sohalariga ko'plab investitsiyalar ajratilgan.



1-rasm. O'zbekistonda investitsion kreditlar taqsimoti (2024) (cbu.uz, n.d.)

Yuqoridagi keltirilgan rasmdan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari tomonidan o'tgan 2024 yilda ko'p milliard so'mlik investitsion kreditlar ajratilgan. Xususan:

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo'yicha davlat dasturlari doirasida qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, farmatsevtika, to'qimachilik va qurilish materiallari sanoatlariga kreditlar berilmoqda.

- Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yoshlar - kelajagimiz", "Har bir oila - tadbirkor" dasturlari orqali investitsion loyihalarga moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda.

- Xorijiy banklar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda xalqaro investitsion kredit liniyalari ochilgan bo'lib, ular orqali ilg'or texnologiyalar jalb qilinmoqda.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tijorat banklarining jami aktivlari, kapitali va depozitlari miqdorining yuqoriligi investitsion loyihalarni moliyalashtirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Banklarning kapitallashuv darajasining o'sishida **tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan xorijiy kredit resurslarining o'rni** kattadir.

3-jadval

2024 yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit resurslarini jalb qilishning maqsadli ko'rsatkichlari mln doll (Qaror, 2024).

T/r	Tijorat banklari nomi	Kredit liniyalari soni	Xorijiy investitsiyalar umumiyligi	shundan, 2024 yil jalb qilish rejasি				
				Jami	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
	Jami	70	3 067,5	2 332,2	278,1	550,2	759,3	744,6
1.	«Agrobank» ATB	4	200,0	200,0	5,0	10,0	70,0	115,0
2.	«Aloqabank» ATB	4	70,4	70,4	5,0	17,0	25,4	23,0
3.	«Asakabank» AJ	7	467,0	365,0	50,0	100,0	150,0	65,0
4.	ATB «Biznesni rivojlantirish banki»	9	85,0	85,0	8,5	12,8	25,5	38,3
5.	«Invest finans bank» AJ	2	75,0	27,9	4,2	5,6	8,4	9,8
6.	«Ipoteka bank» ATIB	4	342,0	200,0	25,0	60,0	35,0	80,0
7.	«Mikrokreditbank» ATB	5	112,0	99,8	2,0	8,0	38,0	51,8
8.	«O'zmilliybank» AJ	7	1 022,0	600,0	62,0	160,0	170,0	208,0
9.	«O'zsanoatqurilishbank» ATB	16	540,0	540,0	81,5	157,3	176,0	125,3
10.	AT «Xalq banki»	3	44,1	44,1		2,1	22,0	20,0
11.	ChEKI «Hamkorbank» ATB	9	110,0	100,0	35,0	17,5	39,0	8,5

Bugungi kunda O'zbekistonda Investitsion kreditlar iqtisodiyotga quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Ish o'rinalarining yaratilishi – yangi zavod va korxonalar ochilishi orqali minglab odamlar ish bilan ta'minlanmoqda.
2. Texnologik yangilanish – xorijiy uskunalar xaridi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifati oshmoqda.
3. Mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligi – import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi natijasida tashqi iqtisodiy mustaqillik kuchaymoqda.
4. Hududlar rivoji – chekka hududlarda kreditlar hisobidan kichik sanoat zonalari tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga O'zbekistonda investitsion kreditlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- Raqamli kreditlash tizimini joriy etish – kredit olish jarayonlarini soddalashtirish uchun avtomatlashtirilgan va onlayn platformalar orqali kredit arizalarini ko'rib chiqish tizimini kengaytirish.
- Foiz stavkalarini maqbullashtirish – real sektorning imkoniyatlariga mos foiz stavkalarini belgilash orqali kredit olishni rag'batlantirish.
- Garov tizimini isloh qilish – intellektual mulk, kelajakdagi daromad yoki sug'urta kafolatlarini garov sifatida qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.
- Moliyaviy savodxonlikni oshirish – tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari uchun investitsion loyihalarni to'g'ri rejalashtirish bo'yicha treninglar o'tkazish.

Xulosa va takliflar.

Investitsion kreditlar O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular real sektorning o'sishiga xizmat qiluvchi asosiy moliyaviy instrumentlardan biri sifatida qaralishi lozim. Mamlakatda mavjud iqtisodiy islohotlar va ochiqlik siyosati fonida ushbu kreditlar tizimi yanada takomillashib, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni keng miqyosda jalb qilish imkonini beradi. Kelgusida samarali moliyaviy boshqaruv, zamonaviy texnologiyalar va institutsional islohotlar orqali investitsion kreditlarning roli yanada ortadi.

Shunday qilib, bank amaliyotida investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash amaliyotining joriy etilishi investitsion kreditlash risklarini minimallashtirish maqsadida kreditlarni ko'rib chiqish va berishning biznes jarayonini takomillashtiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

- cbu.uz (n.d.) Available at: www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.*
- G'ozibekov D. G'. (2003) Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Toshkent: «Moliya» nashriyoti, 9-bet.*
- Kurbanov, R. (2020). The practice of strengthening of resource base in private banks. International Journal of Economics, Commerce and Management, 8(3), 23485-0386.*
- Kurbanov PhD, R. (2021). Analysis of efficiency indicators of private banks activity. International Finance and Accounting, (1), 11.*
- Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14-fevral 2024-yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2024 yil I choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 92-sonli Qarori.*
- Ulashov A.R., Hakimova G.R. (2024) Investitsiya loyihalarini kreditlash: muammolar va echimlar (tijorat banklari misolida). Maqola. O'zbekiston milliy axborot agentligi <https://cdn.aza.uz/2024/06/07/16>.*
- Yig'ilish (2024) Prezident Shavkat Mirziyoev 2024 yil 20 may kuni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklarning ishtiroki mavzusidagi yig'ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/7246>.*
- Марголин А. М. (2006) Инвестиции. М.: РАГС, -С.464.*
- Самуэльсон Пол А. (1999) Экономика: Издание 15-е. Пер. с англ. – Бином М. – КноРус, -С. 800.*
- Словарь (2004) Финансово-кредитный словарь. Т. 1. – М.: «Финансы и статистика», 2004 г. – С. 470.*